



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
REKTORINING BUYRUG‘I

2024-yil “26” dekabr

№ 337-44

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirining 2024-yil 23-dekabrdagi
472-son buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 13-dekabrdagi 836-son qarori ijrosi yuzasidan chiqarilgan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 23-dekabrdagi 472-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini taminlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Barcha prorektorlar, institut direktorlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo‘lim boshliqlariga:

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 13-dekabrdagi 836-son qarori ijrosi yuzasidan chiqarilgan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 23-dekabrdagi 472-son buyrug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

1.2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom 1-ilovaga hamda “Kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

2. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor N.Abdullayev; Registrator ofisi boshlig‘i D.Narimanov; institutlar direktorlari: H.Mirzahmedova, D.Salayev; fakultetlar dekanlari: M.Askarov, A.Vaxidovga:

2.1. 2024/2025-o‘quv yilida yakuniy davlat attestatsiyasi(keyingi o‘rinlarda - attestatsiya) “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda belgilangan talablarga qat’iy amal qilgan holda tashkil etilsin.

2.2. Nizomga asosan har bir ta’lim yo‘nalishi kesimida Davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari royxati va tarkibi shakllantirilsin hamda universitet kengashining dekabr oyi muhokamasiga taqdim etilsin.

Attestatsiya komissiyasi a‘zoligiga jalb etilgan mutaxassislariga qonunchilik

hujjatlariga muvofiq mehnatga soatbay haq to'lash miqdorlari asosida ularning asosiy ish joylaridagi ish haqlarini saqlagan holda haq to'lash choralari ko'rilsin.

2.3. Kafedralardagi tajribali professor-o'qituvchilar hamda korxonalarning (tashkilotlarning) mutaxassislarini jalb etgan holda, attestatsiya dasturlari ishlab chiqilsin hamda universitet kengashining dekabr oyi muhokamasiga taqdim etilsin.

Mazkur dasturlar tasdiqlangandan song, universitetning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi ta'minlansin.

2.4. 2025-yil 1-yanvardan boshlab universitetning tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bitiruvchilarining attestatsiyasini ish beruvchi korxona va tashkilotlarda tashkil etilishi chora-tadbirlari belgilansin.

2.5. Universitet bitiruvchilarining attestatsiyasini tashkil etishda ish beruvchi korxona va tashkilotlarga har tomonlama uslubiy jihatdan ko'maklashish hamda ularning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirib borish ishlari amalga oshirilsin.

3. O'quv ishlari bo'yicha prorektor N.Abdullayev, institutlar direktorlari: H.Mirzahmedova, D.Salayev; fakultetlar dekanlari: M.Askarov, A.Vaxidovga:

3.1. Ushbu buyruq mazmun mohiyatini barcha professor-o'qituvchilar e'tiboriga yetkazilishi ta'minlansin.

4. Devonxona va arxiv bo'limi mudiri Sh.Yakubjanovaga:

4.1. Mazkur buyruq va vazirlik buyrug'i nusxalari o'rnatilgan tartibda universitet prorektorlari va fakultetlarga yetkazilishi ta'minlansin.

5. Ushbu buyruq ijrosining nazorati O'quv ishlari bo'yicha prorektor N.Abdullayevga yuklatilsin.

Rektor



G.Sh.Rixsiyeva